

**SHE'RIY DIDAKTIK MATNLARDAN FOYDALANISHNING KREATIV
YONDASHUV USULLARI**

Muhammadiyeva Aziza Rustamovna

*Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 4-sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.11.2025

Revised: 30.11.2025

Accepted: 01.12.2025

*Ushbu maqolada kasbiy faoliyat, o'quvchilarning
bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish
yo'llari, kreativlik, kreativ yondashuv usullari, she'riy
didaktik matnlar haqida atroflicha bayon etilgan*

KALIT SO'ZLAR:

*kreativlik, kreativ
yondashuv, kasbiy
faoliyat, she'riy didaktik
matnlar, barkamol
shaxs, ma'nan
yetuklik, mustaqil
fikrlash*

Ko'plab o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi yo'qolgan, buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqlanib kasbiy faoliyatini tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ham ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan o'quvchilar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora tadbirlar belgilasada, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab rejalashtirib o'tilishi o'quvchilar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinmaganligi o'quvchilar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag'bat bildirilmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o'quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar.

O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil kreativlik sanaladi.¹ Shu o'rinda kreativlik o'zi nima degan savolga quyidagicha izoh keltirishni joiz bildim. Kreativlik- (lotincha, inglizcha, „create“ - yaratish, „creative“ — yaratuvchi, ijodkor, — individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ² hisoblanadi. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: “Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish lozim”³. Shu o'rinda yuqoridagi fikrni chuqur anglagan holda quyidagi savollarga javob izlab ko'raylik-chi? Xo'sh nega bugun o'quvchilar darsga qiziqmayapti? , Nega Alisher Navoiy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar hozir yetishib chiqmayapti? , O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini qanday oshirish mumkin? Biz o'qituvchilar o'quvchilarga to'g'ri yo'nalish bera olayapmizmi? Qabilidagi savollarga o'z fikrim bilan javob bersam, biz o'quvchilarni ijodiy ishlashga o'rgatishimiz zarur. U o'zi nimanidir kashf etsin yoki kreativ (ijodiy) tarzda yondasha olsin. Beriladigan ma'lumotlarimiz she'riy usulda bo'lsa, ulardan ham she'riy tarzda izoh talab qilinsa, yoki ongli tarzda she'ning ma'no mazmunini tushunib matnni o'zlari yaratsa o'quvchilarning darsga bo'lgan ishtiyoqi sezilarli darajada ortadi. Jamiyat taraqqiyoti jadallashayotgan bugungi kun fan va texnika sirlarini tushuna oladigan va uni hayotga tadbiq eta oladigan yosh kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Yosh avlodga bilim berish, ularni hozirgi kundagi barcha dolzarb muammolarni tushunib, uni o'z navbatida yecha oladigan ma'nan yetuk barkamol shaxslarni yetishtirish dolzarb masaladir. Zero, yurtimizning dunyo hamjamiyatidagi ilg'or davlatlar qatoridan joy olishi, xalqimizning porloq kelajagini tarkib toptirish bilan bevosita bog'liq. Ta'lim-tarbiya berishda she'riy didaktik matnlardan foydalanishning kreativ yondashuv usullaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi . Bu borada dastlab bunday she'rlarni to'plash va uni dars jarayoniga tadbiq etishning samarali usullarini ishlab chiqish zarur. Bunday darslarni uyushtirishda, albatta, she'riy o'yinlardan foydalanish o'quvchilar faolligini taminlaydi. Ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan: 3-sinfda ot so'z turkumlari haqida ma'lumot mavzusini

¹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

² N.muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov , A.To'raev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent- 2015

³ Islom Karimov „Barkamol avlod orzusi“ .Toshkent., „Sharq“nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati.1999-yil.

o'rganishga kirishar ekan o'quvchilarga quyidagi didaktik she'rni havola etsa maqsadga muvofiqdir.

Predmetning nomiman
Deyishadi meni ot
So'roqlarim kim? nima?
Men bilan ko'ngillar shod.
-Men atoqli, turdoshman,
Kelishiklarga boshman.
Kitob, daftar, qalamman,
O'zim sirli olamman,
Men a'lochi o'quvchi,
Quruvchi ham to'quvchi,
O'ylab topchi, do'stinam,
O'zi nima ekanman?

O'quvchilarga galdagi topshiriq didaktik she'r mazmunini chuqur anglab qoidani o'zlari hosil qilishi kerakligi aytiladi shundagina o'quvchilar mustaqil, kreativ fikrlaydi. She'riy didaktik matnni ongli tarzda tushunib tahlil qilib, aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shunday ekan boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, mustaqil tahlil qila olishga chorlaydigan she'riy didaktik matnlardan foydalanish zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov „Barkamol avlod orzusi“ .Toshkent., „Sharq“ nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati. 1999-yil.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

3. N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov, A. To'raev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent- 2015